

SHASHKA-OMMABOP O'YINDIR

Norqulova Malika Ilhom qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi.

Keyingi yillarda ommaviy axborot vositalari, radio va televidenie orqali yoshlarni kitob o'qimay qo'yganligi, televizor va kompyuter o'yinlariga berilib ketganligi haqida ko'p yozilmoqda va aytilmoqda. Intellektual sport turlari hisoblanadigan shaxmat va shashka bilan shug'ullanuvchi bolalarda bu kabi muammolar yo'q. Chunki ular kompyuterda faqat shaxmat va shashkaga oid kitoblar va dasturlar, internetda esa shu sport turlariga oid saytlardan foydalanish orqali o'z bilimlarini boyitishga harakat qilishadi.

Shuning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni sport bilan, xususan shashka bilan shug'ullanishi maqsadga muvofiqdir.

Shashka sport turi barcha xalqlar orasida eng ommaviy bo'lib, bu o'yinni to'rt yoshdagi bolalardan tortib katta yoshdagi qariyalar ham sevib o'ynaydi.

Darhaqiqat, yurtimizdagi istalgan bog'cha guruhi yoki maktab sinfiga kirib, "Kim shashka o'ynay oladi?" deb savol bersangiz, deyarli hamma qo'l ko'taradi.

Shashka o'yini o'zining oddiyligi va turli chiroyli kombinatsiyalarga boyligi bilan boshqa intellektual sport turlaridan ajralib turadi.(1.10) 27 yil mobaynida shaxmat bo'yicha jahon chempioni tojini o'zida saqlab qolgan Emmanuel Lasker shashka o'yinining jozibasini, uning kurashlarga boy vaziyatlarini va aqlni lol qoldiradigan kombinatsiyalarini ko'rib: "Shashka o'yini shaxmatning munosib onasidir" degan edi.

Shashka sporti - bolani o'ylashga, mustaqil fikrlashga, aql bilan tahlil qilishga, qat'iylikka, ishchanlikka, kitob o'qishga, intizomga va xotirani mashq qildirishga o'rgatadi. (2.4)

An'anaviy kuchli hisoblangan Rossiya, Belarus, Litva, Ukraina, Gollandiya, Qozog'iston, Polsha, Mongoliya va tobora shashka bo'yicha rivojlanib borayotgan Xitoy Xalq Respublikasi sportchilari mamlakatimiz shashkachilarining asosiy raqiblari hisoblanadi.

Shashkachilarimiz 1991-2018 yillarda faqat Jahon va Osiyo chempionatlarida 218 ta medalni qo'lga kiritishgan bo'lsa, shundan 100 tasi oltin, 64 tasi kumush va 54 tasi bronza medallar. Reyting bo'yicha hozirgi paytda shashkachilarimiz Osiyoda 1-o'rinni, dunyo miqyosida esa 3-4 o'rinlarni egallab turishibdi. O'zbekistonlik shashkachilardan Markiel Fazilov erkaklar o'rtasida ikki karra Jahon chempioni unvonini qo'lga kiritgan.Yosh sportchilarimizdan Saidqosim Aliev (5 karra), Nurali Raxmatov, Gulsumbegim Alieva,Samandar Kalanov(2 karra),Nigina Bozorova,Shaxzoda Tursunmurotova (2 karra),Vasfiya Berdiqulova (2 karra), Mavluda Maxmudova (3 karra), Muxlisa Tolibjonova, Ozodbek O'rmonaliev (2 karra) va Samira Qaxxorovalar turli yillarda o'z yosh toifalari bo'yicha Jahon chempioni degan sharaflı unvonga sazovor bo'lishgan.

Erkaklar va ayollar o'rtasida o'tkazilgan Osiyo chempionatlarida sportchilarimizdan Nikolay Mishanskiy, Alisher Artikov, Abduqodir Toshtemirov, Samandar Kalanov,Sayyora

Yuldasheva va Nigina Bozorovalar Osiyo chempionatlarining oltin medallarini qo'lga kiritishgan.

Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston terma jamoasi tarkibida ikkita xalqaro grossmeyster (M.Fazilov, N.Mishanskiy) faoliyat olib borgan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng ular safiga A.Artikov, A.Toshtemirov, S.Yo'ldosheva va

S. Kalanovlar qo'shilishdi.

Xalqaro toifadagi sport ustalari N.Bozorova, S.Aliev va Sh.Tursunmurotovalar ham bu marrani egallashga yaqin turishibdi.

64 va 100 katakli shashka bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi 2013, 2015, 2017 yillarda Toshkent shahrida o'tkazilgan Osiyo chempionatlarida umumjamo'a hisobida birinchi o'rinlarni egallagani tahsinga loyiq. O'zbekiston ayollar terma jamoasi 2013-2018 yillar davomida 64 katakli shashka bo'yicha o'tkazilgan Jamoaviy jahon chempionatlarida muntazam ravishda sovrinli o'rinlarni egallab yurtimizga yorug' yuz bilan qaytishgan.

Murabbiylarimizdan Markiel Fazilov 2000 yilda, Alisher Artikov esa

2015 yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustosi" fahriy unvonlari bilan taqdirlangan. Bundan tashqari ularga Xalqaro shashka federatsiyasi (IDF) tomonidan xalqaro toifadagi arbitr unvoni ham berilgan.

Biz, Sirdaryo viloyati sportning o'yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktabi jamoasi, mamlakatimiz yosh shashkachilarini keyingi yillarda ham Jahon va Osiyo chempionatlarida umumjamo'a hisobida birinchi o'rinlarni egallashlarini ta'minlash maqsadida ularga yordam sifatida o'zbek tilida o'quv qo'llanma yaratishga harakat qildik.

Shashka o'yini uchta bosqichdan iborat: o'yinning boshlanish qismi (debyut), o'yinning o'rtasi (mittelshpil) va o'yinning oxiri (endshpil). Ushbu bosqichlarning barchasi bir-biriga chambarchas bog'liq, ularning har biri uchun o'ziga xos usullar ishlab chiqilgan. Tajribali shashkachi o'yinning har bir bosqichidagi usullardan to'g'ri foydalanishni bilishi kerak. Turli o'yinlarda bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish har xil bo'ladi, lekin odatda dastlabki 5-8 tagacha yurishlar debyutni tashkil etadi, undan keyin mittelshpil boshlanadi. Dona almashinuvlari tufayli doskada shashka donalarining kamayib borishi natijasida o'yin endshpil bosqichiga o'tadi. Har bir tomondan to'rtga yaqin dona ishtirok etadigan vaziyatlar odatda endshpilga taalluqli bo'ladi.

Uchala bosqich ham bir xil ahamiyatga ega bo'lishiga qaramasdan, biz asosiy e'tiborni mittelshpilga qaratamiz, chunki aynan o'yinning o'rta bosqichini o'rganishda shashkachilarda donalarni boshqarish va xulosalarni umumlashtirish bo'yicha qiyinchiliklar tug'iladi. (3.45) Agar o'yinning debyut va mittelshpil bosqichlari yetarlicha ishlab va o'rganib chiqilgan bo'lsa, mittelshpil qismi haqida bunday deb bo'lmaydi. Ushbu eng ma'suliyatli va murakkab bosqich juda kam o'rganilgan, garchi asosiy kurash aynan mittelshpilda olib borilsada.

Yaxshi yoki yomon endshpilga o'tish mittelshpil qanday o'ynalganiga bog'liq bo'ladi. (4.78) Zamonaviy musobaqalarda debyutning o'zidayoq katta ustunlikka erishish

qiyin. Ko'pincha o'yinlarda quyidagicha reja bo'ladi: endshpilda qo'l kelishi mumkin bo'lgan pozitsion ustunlikni debyut va mittelshpil qismlarida to'plab borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Boruxov S, Xeyf L.,Shashka sirlari,T.,1967.
- 2.Mirotin B.A.,Kozlov I.P.Taktika v russkix shashkax.1974.
- 3.Kazarsev.E.M.Shashki na diagrammax.2007.
- 4.Gerseron.B.Volshebник russkix shashek.2000.